
BELBOG'LI KURASH BO'YICHA MUSOBAQA O'TKAZILDI

□ Rishton tumanidagi "Jahonobod" qishlog'i yoshlari azaldan sportning milliy va belbog'li kurash turi bilan shug'ullanib keladilar. * Bugun ushbu mahalla ahli uchun sport bayrami tashkil etildi. Jahonobod qishlog'ida yashab o'zidan munosib iz qoldirgan, qishloqning ramzi sanalgan Abduqodir polvon, Xolmatjon polvon va Isroiljon polvon xotirasiga bag'ishlangan belbog'li kurash bo'yicha ochiq chempionat bo'lib o'tdi. Musobaqada Qirg'iziston va Tojikiston Respublikasi va qo'shni tuman va viloyatlardan kelgan polvonlar ishtirok etdilar. Musobaqaning ochilish marosimida tuman hokimi va sektor rahbarlari qatnashishdi. Ochilish marosimida so'zga chiqqan tuman hokimi sportchilarga omad tiladi. ??? - Jahonobod o'zining polvonlari bilan mashhurdir. Bu yerdan bir nechta chempionlar yetishib chiqqanini faxr bilan tilga mumkin. Bugun ana shunday polvonlar xotirasi uchun musobaqa o'tkazilayotgani barchani xursand qildi. Bugungi bahslarda barcha sportchilarga muvaffaqiyat tilayman, deydi tuman hokimi. ??? Asrlar osha o'zida mardlik, halollik, jasorat kabi fazilatlarini jamlagan va milliy sport turimiz bo'lgan belbog'li kurashni dunyo bo'ylab keng miqyosda rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas. Epchillik, chaqqonlik, mardlik xislatlarini o'zida jam qilgan belbog'li kurash yoshlarning jismonan sog'lom, ma'nan yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishlarida o'ziga xos o'ringa ega. Keyingi yillarda bu sport turini ommalashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, iqtidorli sportchi yoshlarni saralash va qo'llab-quvvatlashga bo'lgan e'tibor oshdi. Endilikda olis va chekka hududlarda ham zamonaviy talablarga javob beradigan sport majmualari qurilmoqda. Bu esa o'zbek sportining dovru'g'ini oshishiga xizmat qilmoqda. ??? - Bellashuvlarini o'tkazish uchun yuqori darajada tayyorgarlik ko'rilganiga guvoh bo'ldik. Buning uchun mezbonlarga, xususan, sportni rivojlantirish bo'limi, tuman hokimligi, sport maktabi jamoasiga minnatdorlik bildiramiz, - dedi belbog'li kurash bo'yicha murabbiyi Zayniddin Artiqov. - Shogirdlarimiz ushbu musobaqada yaxshi natijalarni qo'lga kiritishdi. Maqsadimiz, nasib etsa jahon chempionatlarida ham yuqori o'rinlarni qo'lga kiritish bo'ladi. ??? Musobaqalar yakuniga yetgach taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Taqdirlash marosimi katta tantanaga aylanib ketdi. Belbog'li kurash yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lgan polvonlarga pul mukofotlari hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-11-12 16:20:43